

# Tarixi

## «Suv energiyasi va nasos stantsiyalaridan foydalanish»

kafedrasi mudiri t.f.d, professor

Bozorov Dilshod Rayimovich

Tel: +99871-237-79-57

E-mai: [d.bazarov@tiiame.uz](mailto:d.bazarov@tiiame.uz)

Nasos stantsiyalari hamda kichik va o'rta gidroelektrostantsiyalarni loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish uchun malakali mutaxassislar, 1934 yilda Gidromelioratsiya fakul'teti tarkibida tashkil qilingan, hozirgi kunda esa «Gidrotexnika qurilishi» fakul'teti tarkibidagi «Suv energiyasi va nasos stantsiyalaridan foydalanish» kafedrasida tayyorlanib kelinmoqda. Kafedra tashkil qilingandan so'ng unga: 1934-1969 yillarda T.A.Kolpakova; 1969-1985 yillarda S.K.Pereverzev, 1986-1999 va 2005-2010 yillarda B.R.Uralov; 1999-2004 yillarda va yana 2010-2018 yillarda T.Sh.Majidov; 2018 yil aprel oyidan dekabr oyigacha E.K.Kan va 2018 yil dekabr oyidan prof.D.R.Bazarov mudirlik qilmoqda. 1934-2019 yillarda kafedrada ilmiy hamda ilmiy-pedagogik ishlari bilan respublikada tanilgan quyidagi professor-o'qituvchilar ishladilar va ishlab kelmoqdalar: professorlardan- D.Ya.Sokolov, V.I.Gromov, I.Pirmatov, E.J.Maxmudov O.Ya.Glovatskiy, D.R.Bazarov va R.R.Ergashevlar; texnika fanlari nomzodlaridan — T.A.Kolpakova, S.K.Pereverzev, S.Saidxodjaev, V.A.Baranov, V.I.Stratonov, V.P.Sudakov, Y.G.Ivanenko, R.R.Abduraupov, T.Sh.Majidov, B.R.Uralov, V.A.Zenkova, R.A.Usmanov, B.M.Obidov, N.R.Raxmatov, E.K.Kan, T.N.Tursunov, F.Sh.Shoazizov, S.K.Xidirov va N.Ikromov; katta o'qituvchilardan — A.M.Motorin, K.V.Stupakov, Y.A.Sosedko, N.I.Goroshkova, A.S.Badalov, shular jumlasidandir. Xozirda kafedrada prof. D.R.Bazarov, prof. R.Ergashev, dos. B.Uralov, dos. E.Kan, dos. F.Shaazizov, dos. N.Ikramov, dos. S.Xidirov, dos. B.Norqulov, kat.o'qit. F.Artikbekova., ass. M.Berdiev, staj.o'qit. B.Shodiev, staj.o'qit O.Voxidov faoliyat ko'rsatmoqda. Kafedra olimlaridan T.A.Kolpakova, S.K.Pereverzev hamda V.P.Sudakovlar «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator», A.S.Saidxodjaev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan quruvchi» va D.R.Bazarov "O'zbekiston Respublikasi Suv Xo'jaligi A'llochisi" unvonlari bilan taqdirlangan. Hozirgi kunda kafedradagi 12 nafar professor-o'qituvchilar, bakalavriat tablim yo'nalishlarida 12 fandan va magistratura mutaxassisliklarda 8 fandan ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarini olib bormoqdalar. Kafedra laboratoriyasiga 22 dona o'quv va 8 dona ilmiy-tekshirish qurilmalari, 3 dona mashinali sug'orish tizimi va nasos qurilmasining harakatdagi nusxasi, noan'anaviy energiya manbalaridan (quyosh panellari) foydalanib, nasos qurilmasini ishlatish, turli gidromashinalar va ularning qismlari qo'yilgan.